



2025-yil 28-avgust

509-13-0-Q/25

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar
Kengashi

**Yirik investitsiya loyihalari uchun ijaraga berilgan yer uchastkalarida loyiha
doirasidagi investitsiya majburiyatlarining bajarilishini monitoring qilish va
investitsiya majburiyatlarini qabul qilish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi “Yer to‘g‘risida”gi Qonunining 4 va 23-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasida tadbirkorlikni yanada qo‘llab-quvvatlash hamda aholi farovonligini ta‘minlash uchun yangi imkoniyatlarni yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-10-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to‘g‘risida”gi Qonunining 8, 35-moddalariga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasida tadbirkorlikni yanada qo‘llab-quvvatlash hamda aholi farovonligini ta‘minlash uchun yangi imkoniyatlarni yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-10-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining qarori bilan “Yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olish va yer uchastkalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijaraga berish tartibi to‘g‘risida”gi nizom va “Yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olish va yer uchastkalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijaraga berish masalasini ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya tarkibi” tasdiqlanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

**Yirik investitsiya loyihalari uchun ijaraga berilgan yer uchastkalarida loyiha
doirasidagi investitsiya majburiyatlarining bajarilishini monitoring qilish va**

investitsiya majburiyatlarini qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Yirik investitsiya loyihalari uchun ijaraga berilgan yer uchastkalarida loyiha doirasidagi investitsiya majburiyatlarining bajarilishini monitoring qilish bo'yicha ishchi guruh tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ishchi guruh:

mazkur qaror bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq loyiha tashabbuskorlariga ajratilgan yer uchastkalarida investitsiya majburiyatlarining bajarilishini doimiy muvofiqlashtirsin;

investitsiya majburiyatlari ijrosini o'rganish maqsadida rejali va rejadan tashqari monitoring o'tkazish choralarini ko'rib borsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi Tadbirkorlikka ko'maklashish direksiyasi (U.Xasanov)ga:

yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olish va yer uchastkalarini to'g'ridan-to'g'ri ijaraga berish masalasini ko'rib chiqish bo'yicha respublika komissiyasi tomonidan ma'qullangan loyiha tashabbuskorlari bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi nomidan investitsiya shartnomasini tuzish;

ijaraga berilgan yer uchastkalarida investitsiya majburiyatlarining bajarilishini monitoring qilish bo'yicha reja jadvalini ishlab chiqish;

ishchi guruh tomonidan o'tkazilgan monitoring natijalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga axborot kiritib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (U.Usmanov) mutasaddi vazirlik va idoralar bilan birgalikda **ikki oy muddat**da O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-avgustdagi PF-129-son Farmoni asosida investitsiya kiritish majburiyatini yuklagan holda loyiha tashabbuskorlariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qarori bilan to'g'ridan-to'g'ri ajratib berilgan yer uchastkalaridan maqsadga muvofiq foydalanishi va bugungi kundagi holatini o'rganib chiqsin hamda natijasi yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga axborot kiritсин.

6. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (U.Usmanov) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-avgustdagi PF-129-son Farmoni asosida tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan yer uchastkalari to'g'risidagi qarorlar va qaror osti hujjatlarini Tadbirkorlikka ko'maklashish direksiyasiga belgilangan tartibda topshirsin.

7. Tadbirkorlikka ko‘maklashish direksiyasi (U.Xasanov) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-avgustdagi PF-129-son Farmoni asosida tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan yer uchastkalarida belgilangan investitsiya majburiyatlarini bajarilishi bo‘yicha mazkur qaror bilan tasdiqlangan Nizom asosida zarur choralarni ko‘rib borsin.

8. Kadastr agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (I.Tleuov) Nukus shahri va tumanlar hokimlari bilan birgalikda investitsiya kiritish majburiyati bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qarori asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ajratib berilgan yer uchastkalaridan maqsadsiz foydalanilgan yoki belgilangan muddatlarda majburiyatlarini bajarmagan tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan yer ijara shartnomalarini amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq bekor qilsin va yer uchastkalarini davlat zaxirasiga qaytarish choralarini ko‘rib borsin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini ta‘minlash va nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosarlari (V.Jolibekov, Sh.Teshayev va T.Yusupov) zimmlariga yuklansin.

**Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar
Kengashining
2025-yil 28-avgustdagi
509-13-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Yirik investitsiya loyihalari uchun ijaraga berilgan yer uchastkalarida loyiha
doirasidagi investitsiya majburiyatlarining bajarilishini monitoring qilish
va investitsiya majburiyatlarini qabul qilish tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash hamda aholi farovonligini ta'minlash uchun yangi imkoniyatlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga muvofiq yirik investitsiya loyihalari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining qarori asosida to'g'ridan-to'g'ri ijaraga berilgan er uchastkalarda (maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalar, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalaridan berilgan yer uchastkalari bundan mustasno) loyiha doirasida investitsiya majburiyatlarining bajarilishini monitoring qilish, investitsiya majburiyatlarini qabul qilish va bekor qilish tartibini belgilaydi.

2. Monitoring - ijaraga olingan yer uchastkalarida jismoniy va yuridik shaxslar, chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar tomonidan (*keyingi o'rinlarda talabgor deb yuritiladi*) investitsiya shartnomasida belgilangan investitsiya majburiyatlarining biznes-reja va tarmoq jadvaliga muvofiq ijro etilishini o'rganish yo'li bilan o'tkaziladi.

Maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalar, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalaridan berilgan yer uchastkalarida monitoring qilish, investitsiya majburiyatlarini qabul qilish va bekor qilish ularning qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

investitsiya shartnomasi — investitsiya faoliyati subyektlari o'rtasida tuziladigan, investitsiya shartnomasi taraflarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydigan yozma bitim;

investitsiya majburiyati — talabgor tomonidan belgilangan maqsadlarga erishish va bajarilishi zarur bo'lgan majburiyat;

monitoring – talabgor tomonidan investitsiya majburiyatlarining loyiha doirasida amalga oshirilishini nazorat qilish, o‘rganish va tahlil qilish;

rejali monitoring – ma’lum bir muddat uchun tasdiqlangan ish rejaga asosan investitsiya majburiyatlarining loyiha doirasida ijro etilishini o‘rganish;

rejadan tashqari monitoring – investitsiya majburiyatlari ijrosini o‘rganish maqsadida monitoring o‘tkazish uchun asos bo‘lgan har bir holatlarni o‘rganish;

monitoring dalolatnomasi – investitsiya majburiyatlari ijrosini o‘rganish natijasi bo‘yicha tuziladigan hujjat;

ta’sir choralari – ogohnoma va ko‘rsatma shaklidagi talabgorning investitsiya majburiyatlari ijrosini o‘rganish natijasi bo‘yicha qo‘llaniladigan hamda ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan hujjatlar;

ogohnoma – sodir etilishi mumkin bo‘lgan qonunbuzilish holatlarining oldini olish maqsadida talabgorni investitsiya majburiyatlarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida qiritiladigan hujjat;

ko‘rsatma – investitsiya majburiyatlarining loyiha doirasida ijro etilishini to‘g‘ri tashkil etish hamda qonunbuzilishlarini oldini olish bo‘yicha uslubiy yo‘nalishlar berish maqsadida kiritiladigan hujjat;

Respublika komissiyasi - Yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olish va yer uchastkalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijaraga berish masalasini ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyasi.

2-bob. Monitoringni tashkil qilish tartibi

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi Tadbirkorlikka ko‘maklashish direksiyasi (*keyingi o‘rinlarda Ishchi organ deb yuritiladi*) talabgor bilan investitsiya shartnomasini tuzish va loyiha doirasida investitsiya majburiyatlarining bajarilishini monitoring qilish va investitsiya majburiyatlarini qabul qilish ishlarini tashkil etish sohasidagi vakolatli organ hisoblanadi.

5. Rejali monitoring Ishchi organ tomonidan tasdiqlangan ish reja asosida o‘tkaziladi.

6. Rejadan tashqari monitoring:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengyesi, Vazirlar Kengashi topshiriqlari;

yerdan foydalanish hamda uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi va huquqni muhofaza qilish organlari ma’lumotlari;

talabgor tomonidan taqdim etilgan hisobotlar va tahliliy ma'lumotlar natijalari;

ommaviy axborot vositalari, shu jumladan ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar orqali talabgorning investitsiya majburiyatlarini ijro etishda qonunbuzilishlar sodir etilayotganligi to'g'risidagi axborotlar;

oldin o'tkazilgan monitoring natijasida aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etilishini o'rganish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa holatlarda ham o'tkazilishi mumkin.

Rejadan tashqari monitoring, ushbu monitoringni o'tkazish uchun asos bo'lgan aniq faktlar bo'yicha o'tkaziladi.

7. Monitoring o'tkazish vaqti va muddatlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi tomonidan tasdiqlanadi va bunda:

monitoring maqsadi va vazifalari;

monitoring o'tkaziladigan talabgorlar nomi;

monitoring davri va davomiyligi;

monitoring o'tkazish bo'yicha ishchi guruh tarkibi (ularning ismi, familiyasi va lavozimi);

monitoring savolnomasi aks ettiriladi.

8. Monitoring qilish faqat Ishchi guruh a'zolari tomonidan ish vaqti davomida o'tkazilishi lozim.

9. Monitoring qilish muddati o'ttiz kundan oshmasligi kerak.

Ishchi guruh rahbarining asoslantirilgan bildirgisi asosida ushbu muddat Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi tomonidan o'ttiz kundan oshmaydigan muddatga uzaytirilishi mumkin.

10. Monitoring o'tkazish vaqti va muddatlari tasdiqlangandan so'ng, monitoring o'tkaziladigan talabgor Ishchi organ tomonidan kamida uch kun oldin yozma ravishda xabardor qilinishi lozim (rejadan tashqari monitoring o'tkazish holatlari bundan mustasno).

11. Monitoringda talabgor tomonidan investitsiya majburiyatlarining loyiha doirasida bajarilishi to'liq o'rganilishi shart.

3-bob. Monitoringni o'tkazish tartibi

12. Ishchi guruh a'zolari monitoringni boshlashdan oldin monitoring o'tkazilayotgan talabgor rahbari yoki uning vazifasini bajaruvchiga (ishonchli vakiliga) o'z xizmat guvohnomasini, monitoring o'tkazish to'g'risida asoslantiruvchi hujjatni ko'rsatgan holda monitoring maqsadi va vazifalari bilan tanishtirishi lozim.

13. Monitoring o'tkazishga asos bo'lgan hujjatlar topshirilgan vaqt monitoring boshlangan vaqt hisoblanadi.

Monitoring o'tkazilayotgan talabgor rahbari yoki uning vazifasini bajaruvchining mazkur hujjatlarni olishdan bosh tortishi monitoringni bekor qilish uchun asos bo'lmaydi.

14. Ishchi guruh har chorakda bir marotaba investitsiya loyihasi amalga oshirilishi va investitsiya majburiyatlari ijrosini hamda ajratilgan yer uchastkasidan maqsadli va samarali foydalanish holatlarini monitoring qilib boradi.

15. Ishchi guruhga monitoring o'tkazish uchun hudud va binoga kirishga to'sqinlik qilinganda, bu haqda ishchi guruh tomonidan monitoring o'tkaziladigan talabgor rahbari yoki uning vazifasini bajaruvchi ishtirokida dalolatnoma tuziladi.

Talabgor rahbari yoki uning vazifasini bajaruvchi dalolatnomani imzolashdan bosh tortganda, bu haqda dalolatnomaga qayd etib qo'yiladi.

Talabgor monitoring qilinishi yuzasidan oldindan xabardor qilinganligiga qaramasdan, uzrli sabablarsiz kelmagan va buning natijasida Ishchi guruhning monitoring qilish uchun hudud va binoga kirishiga, ko'zdan kechirishiga imkoniyat yaratilmaganda bu to'g'risida dalolatnoma tuziladi.

16. Ishchi organ tomonidan monitoring o'tkazishda, zarur hollarda, davlat organi va boshqa tashkilotlarning rahbarlari va mutaxassislari jalb qilinishi mumkin.

17. Savolnomadagi har bir masala to'liq o'rganilishi va monitoring dalolatnomasida qayd etilishi lozim.

Savolnomadagi masala bo'yicha kamchilik aniqlanmaganda, Ishchi guruh tomonidan bu haqida monitoring dalolatnomasida ko'rsatiladi.

18. Ishchi guruh a'zolari talabgorning investitsiya faoliyatiga bog'liq bo'lmagan boshqa faoliyatiga aralashishi mumkin emas.

4-bob. Monitoring ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlari

19. Monitoring o'tkazilayotgan talabgor quyidagi huquqlarga ega:

monitoring o'tkazish uchun asos bo'lgan hujjatlarni talab qilish va ishchi guruh a'zolarining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari bilan tanishish;

monitoring natijasi bo'yicha rasmiylashtirilgan dalolatnoma bir nusxasini olish;

qonunda belgilangan tartibda monitoring natijalari ustidan shikoyat qilish.

20. Monitoring o'tkazilayotgan talabgorning majburiyatlari:

barcha zarur hujjatlarni monitoring o'tkazayotgan ishchi guruhga o'z vaqtida taqdim etish;

ishchi guruhga monitoring o'tkazish uchun tegishli shart-sharoit yaratib berish;

ishchi guruhning monitoring o'tkazish bilan bog'liq qonuniy ta'sir choralariini so'zsiz bajarish;

korruptsiyaviy holatlarga yo'l qo'ymaslik, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga ko'ndirish holatlari, shuningdek ishchi guruh faoliyatiga noqonuniy aralashuvlar (tazyiq) yuzaga keltirmaslik;

ishchi guruh bilan odob-axloq va kasb-etika qoidalariga muvofiq munosabatda bo'lish;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

21. Ishchi guruh quyidagi huquqlarga ega:

monitoring o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va materiallar bilan tanishish;

talabgorning hududi va bino-inshootlariga to'sqinliksiz kirish;

talabgordan monitoring o'tkazish bilan bevosita bog'liq bo'lgan zarur hujjatlar va boshqa axborotlarni talab qilish;

monitoring jarayoni bilan bog'liq zarur hujjatlardan nusxa olish;

monitoring o'tkazilayotgan talabgorlardan qonun hujjatlarining buzilishi holati yuzasidan og'zaki va yozma tushuntirishlar talab qilish;

ishchi guruh qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

22. Ishchi guruh quyidagilarni bajarishga majbur:

amaldagi qonun hujjatlari talablariga qat'iy rioya etish;

o'zlariga ma'lum bo'lgan xizmat va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlarini tashkil etuvchi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etmaslik;

foydalanish uchun olingan hujjatlar va materiallarni but saqlanishini hamda monitoring yakunlangandan so'ng qaytarilishini ta'minlash;

korruptsiyaviy holatlarga yo'l qo'ymaslik, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga ko'ndirish holatlari, shuningdek faoliyatga noqonuniy aralashuvlar (tazyiq) yuzaga kelgan taqdirda Ishchi organ rahbarini xabardor etish;

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda o'z rahbarini darhol xabardor qilish;

monitoring predmeti bo'lmagan masalalarni o'rganmaslik hamda hujjatlarni talab qilmaslik;

talabgorning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga aralashmaslik;

monitoringni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

odob-axloq va kasb-etikasi qoidalariga qat'iy rioya etish, talabgor xodimlariga do'q-po'pisa qilmaslik, ular bilan xolis, prinsipial va qonunchilik hujjatlari talablaridan kelib chiqib muomala qilish;

monitoringni savolnoma asosida olib borish;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

4-bob. Monitoring natijalarini rasmiylashtirish

23. Ishchi guruh tomonidan monitoring natijasi bo'yicha monitoring dalolatnomasi tuziladi.

24. Dalolatnomada yetarli darajada isbotlanmagan, asossiz, taxminiy xulosalar bo'lmasligi lozim. Agarda, monitoring davomida qonunbuzilish, investitsiya majburiyatlari bajarilmagan holatlari aniqlanmasa, bu dalolatnomada qayd etiladi.

25. Dalolatnoma ikki nusxada tuzilib, bir nusxasi Ishchi organga beriladi va ikkinchi nusxasi talabgorda qoldiriladi.

26. Monitoring o'tkazilgan talabgor rahbari yoki vazifasini bajaruvchi monitoring dalolatnomasini imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ishchi guruh tomonidan dalolatnoma rasmiylashtiriladi va u monitoring dalolatnomasiga ilova qilinadi. Bu holatda monitoring dalolatnomasining bir nusxasi monitoring o'tkazilgan talabgorga pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi va u jo'natilgan kundan e'tiboran uch kun o'tgach unga topshirilgan hisoblanadi.

Shuningdek, monitoring dalolatnomasi elektron hujjat aylanishi dasturi orqali ham yuborilishi mumkin.

Monitoring dalolatnomasining bir nusxasi Ishchi organning monitoring o'tkazishga mas'ul tarkibiy bo'linmasida ilovalari va asoslantiruvchi hujjatlari bilan birga qog'oz va elektron shaklda saqlanadi.

27. Monitoring dalolatnomasi imzolanib, monitoring o'tkazilgan talabgorga topshirilgan kun monitoring tugallangan kun deb hisoblanadi.

5-bob. Ta'sir choralarini qo'llash

28. Ishchi organ monitoring o'tkazish natijalariga ko'ra o'n ish kuni ichida aniqlangan qonunbuzilish holatlaridan (investitsiya majburiyatlarining belgilangan muddatlarda bajarilmagani, loyiha doirasidan chetga chiqqan, o'zboshimchalik bilan qurilishlar amalga oshirilgan holatlar va boshqa) kelib chiqib mazkur Nizomda belgilangan ta'sir choralarining birini qo'llaydi.

29. Talabgor kiritilgan ta'sir choralarini o'n kundan bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqadi hamda ko'rib chiqish natijalari yuzasidan Ishchi organga yozma ma'lumotnoma taqdim etadi.

30. Talabgor, Ishchi organ tomonidan berilgan ogohnoma, ko'rsatmaga amal qilmasdan monitoring natijasida aniqlangan qonunbuzilish holatlarni belgilangan muddatda bartaraf etmagan va(yoki) investitsiya majburiyatlarini bundan buyon amalga oshirish imkoniyatini asoslovchi hujjatlar taqdim etmagan taqdirda Ishchi organ yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqini bekor qilish yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga axborot kiritadi.

Yer uchastkaga bo'lgan ijara huquqini bekor qilish O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi va yer munosabatlarini tartibga solish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6-bob. Investitsiya majburiyatlarining bajarilishini qabul qilish

31. Talabgor investitsiya shartnomasiga muvofiq investitsiya loyihasi doirasida investitsiya majburiyatlarining bajarilganligi to'g'risida tegishli hisobotlarini va axborotni yozma shaklda Ishchi organga taqdim etadi.

32. Kiritilgan investitsiya miqdori talabgor tomonidan jalb etiladigan tashkilotlarning nazorat o'lchovi va mustaqil baholovchi hamda auditorlik tashkilotlarining hisoboti asosida aniqlanadi.

Bunda investitsiya majburiyatlarining bajarilgani:

bino va inshootlarni qurish bilan bog'liq investitsiya majburiyatlarining miqdori tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari asosida qurilganligi bo'yicha nazorat o'lchovi va auditorlik tashkilotining hisobotiga muvofiq;

o'rnatilgan uskuna va boshqa mol-mulklar miqdori mustaqil baholovchi hamda auditorlik tashkilotlarining hisobotlari asosida qabul qilinadi.

33. Ishchi organ tegishli hisobotlar va axborot kelib tushgan kundan boshlab 10 ish kunidan kechiktirmasdan ishchi guruhni yig'gan holda investitsiya majburiyatlarining bajarilganligini joyiga borib o'rganadi.

34. Ishchi guruh investitsiya majburiyatlarining bajarilganligi to'g'risida yakuniy monitoring dalolatnomasini tuzadi va Ishchi organga taqdim etadi.

Ishchi organ talabgorning investitsiya majburiyatlari to'liq bajarilganligi bo'yicha asos mavjud bo'lganda investitsiya majburiyatlari to'liq bajarilganligini qabul qilish uchun tegishli hujjatlarni Respublika komissiyasiga kiritadi.

Agar, monitoring natijasida investitsiya majburiyatlari to'liq bajarilmaganligi aniqlangan taqdirda Ishchi organ investitsiya majburiyatlarining bajarilishini qabul qilishni rad etadi va umumiy asoslarga ko'ra ta'sir choralari ko'radi.

Bunda talabgor Ishchi organning investitsiya majburiyatlari bajarilishini qabul qilishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan belgilangan tartibda sudga murojaat etishga haqli.

35. Respublika komissiyasi talabgor va Ishchi organ tomonidan taqdim etilgan hujjatlarga asosan investitsiya majburiyatlarini to'liq bajarilganligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

36. Talabgor tomonidan investitsiya majburiyatlari to'liq hajmda bajarilmagunga va komissiya tomonidan majburiyatlar to'liq bajarilganligi to'g'risida qaror qabul qilinmagunga qadar qurilgan bino va inshootlarni kadastr organlarida davlat ro'yxatiga olishga yo'l qo'yilmaydi.

7-bob. Yakuniy qoidalar

37. Ishchi organ har yil yakunlari bo'yicha o'tkazilgan monitoring natijalari yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga tahliliy ma'lumotlar kiritib boradi.

38. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar
Kengashining
2025-yil 28-avgustdagi
509-13-0-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**Yirik investitsiya loyihalari uchun ijaraga berilgan yer uchastkalarida loyiha
doirasidagi investitsiya majburiyatlarining bajarilishini monitoring qilish
bo'yicha ishchi guruh tarkibi**

t/r	F.I.Sh.	Ish joyi va lavozimi
1.	U.Xasanov	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi Tadbirkorlikka ko'maklashish direksiyasi direktori
2.	P.Seytmuratov	Kadastr agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari
3.	A.Urazimbetov	Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirining o'rinbosari
4.	B.Ibraymov	Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirining o'rinbosari
5.	<i>Lavozimi bo'yicha</i>	Tuman (shahar) hokimining investitsiya masalalari bo'yicha o'rinbosari
6.	A.Saburov	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi Tadbirkorlikka ko'maklashish direksiyasining bo'lim boshlig'i

*Izoh: Ischi guruh a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning o'rniga tayinlangan yoki vazifasi
yuklangan shaxs ishchi guruh a'zosi bo'lib hisoblanadi.*